

Tarkibida Efir Moylari Bo'lgan Mahalliy O'simliklar

S. S. Achilova¹, X. S. Xusainova², S. Sh. Matchanov³

Annotatsiya: Bu maqola efir moylari hamda ularni o'z ichiga olgan mahalliy o'simliklarning xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va qo'llanilish sohalarini o'rganishga bag'ishlangan. Kirish qismida efir moylari haqida umumiy ma'lumotlar va ularni olishning tarixiy usullari keltirilgan. Asosiy bo'limlarda yalpizning mashhur turlari, kimyoviy tarkibi, foydali xususiyatlari, tibbiyat, kosmetika va oziq-ovqat sanoatida qo'llanilishi batafsil yoritilgan. Yalpizning asosiy komponentlari, xususan, mentolning dorivor va ovqatga tatbiq etilishi chuqur o'rganilgan. Jumladan, maqolada efir moylarning fizik va kimyoviy xususiyatlari haqida keng ma'lumotlar berilgan. Bu taddiqot efir moylariga bo'lgan talab va ularni samarali qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatib o'tadi.

Kalit so'zlar: Efir moylari, yalpiz, mentol, kimyoviy tarkib, dorivor xususiyatlar, kosmetika, oziq-ovqat sanoati, o'simliklar, farmakognoziya, organik moddalar.

Kirish: Efir moylari - o'simliklardan suv bug'i bilan yordamida haydab olinadigan, o`ziga xos hidi va mazaga ega bo`lgan uchuvchan organik moddalar aralashmasiga aytildi. Tarkibida efir moyi o'simliklardan olinadigan xushbo'y suvlar, va efir moylari qadimdan ma'lum. Odamlar bu mahsulotlardanturli kasallikkarni davolashda, qandolat va oziq-ovqat sanoatda keng foydalanib kelganlar. O'rta asrlarda arablar o'simliklardan efir moylarini suv bilan haydab olish va ularni suvdan ajratish usullarni suvdan ajratish usullarini yaxshi bilar edilar.

Yalpizning vatani Yevropa, Osiyo va Shimoliy Afrika deb hisoblanadi, ammo u boshqa mintaqalarda ham keng tarqalgan. Yalpiz nam, yaxshi sug'oriladigan tuproqlarda, soyali yoki qisman soyali joylarda yaxshi o'sadi. Bog'larda, maydonchalarda va hatto uy ichida ham etishtirish mumkin.

Turlari Yalpizning bir nechta mashhur turlari mavjud:

1. Bodring yalpizi (*Mentha spicata*) – bu tur yumshoq ta'mga ega bo'lib, uni ko'pincha salatlar, choylar va turli shirinliklarda ishlatalishadi.
2. Na'matak (*Mentha piperita*) – eng keng tarqalgan tur bo'lib, u ancha kuchli ta'mga ega. Ko'pincha dorivor vosita sifatida va kosmetika mahsulotlarida qo'llaniladi.
3. Yapon yalpizi (*Mentha arvensis*) – na'matakdan ko'ra yuqori mentol miqdoriga ega va efir moyi olish uchun ishlataladi.
4. Suvi yalpizi (*Mentha aquatica*) – suv havzalari yaqinida o'sadigan bu tur kamroq mashhur, lekin ba'zi sharoitlarda kosmetik va dorivor maqsadlarda qo'llanadi.

Kimyoviy tarkibi

Yalpiz (*Mentha*) – bu labi guldoshlar (Lamiaceae) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik bo'lib, ko'plab turlarga ega va dunyo bo'yab keng tarqalgan. Yalpiz o'zining tetiklantiruvchi hidi, ajoyib ta'mi va foydali xususiyatlari bilan mashhur. Yalpiz turlarining eng mashhurlari – bu bodring yalpizi (*Mentha spicata*) va na'matak (*Mentha piperita*). Quyida yalpiz haqida keng ma'lumot berilgan.

Botanika xususiyatlari: Yalpiz ko'p yillik o'simlik bo'lib, balandligi 30-90 sm ga yetadi. Uning ildiz tizimi gorizontal tarzda kengayadi, shuning uchun yalpiz tezda yoyiladi va yangi joylarda o'sib chiqadi. Barglari to'q yashil rangda, shakli cho'ziq va qirrali bo'lib, o'ziga xos mentol aromatiga ega. Yalpiz gulchilari mayda, oq yoki binafsha rangda bo'lib, poya uchlarida joylashgan. Yalpizning asosiy



komponenti – mentol bo‘lib, unga xos hidi va ta'mini beradi. Shuningdek, yalpiz tarkibida quyidagilar mavjud:Menton – mentolning izomeri bo‘lib, aroma va ta'mni hosil qiladi.

Efir moylari – yalpizda 1% dan 3% gacha efir moylari mavjud bo‘lib, bu moylar dorivor maqsadlarda keng qo‘llaniladi.Antioksidantlar – yalpiz kuchli antioksidant xususiyatlarga ega bo‘lib, hujayra shikastlanishini kamaytirishga yordam beradi.Flavonoidlar – bu moddalar yallig‘lanishga qarshi va antikarsinogen xususiyatlarga ega.

Foydali xususiyatlari Yalpiz ko‘plab foydali xususiyatlarga ega:

1. Hazm qilishni yaxshilaydi – yalpiz oshqozon-ichak tizimi faoliyatini yaxshilaydi, oshqozon og‘rig‘i va gaz muammolarini kamaytiradi.
2. Yallig‘lanishga qarshi xususiyatlari – yalpizda mavjud bo‘lgan mentol va boshqa komponentlar yallig‘lanishni kamaytirishga yordam beradi.
3. Tetiklantiruvchi ta’sir – yalpiz hidi asab tizimini tinchlantiradi va tetiklantiradi, shuningdek, stress va bosh og‘rig‘ini kamaytirishi mumkin.
4. Sovuqqa qarshi vosita – yalpiz sovuqda shamollash belgilarini yengillashtiradi, ayniqsa burun tiqilishi va tomoq og‘rig‘ida yordam beradi.
5. Teri va soch parvarishi – yalpiz yog‘i terini tozalaydi, akne va yallig‘lanishlarni kamaytiradi. Sochlarga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatib, ularni mustahkamlaydi va toza saqlaydi.

Oziq-ovqatda qo‘llanilishi.Yalpiz nafaqt dorivor o‘simlik, balki kuchli ovqat qo‘shimchasi sifatida ham keng qo‘llaniladi. Uning barglari yangi yoki quritilgan holda choylar, desertlar, salatlar va ichimliklarga qo‘shiladi. Yalpiz ayniqsa yozgi ichimliklarda va muzqaymoqlarda mashhur bo‘lib, ularga tetiklantiruvchi ta’m beradi.

Kosmetikada qo‘llanilishi: Yalpizning antiseptik va tetiklantiruvchi xususiyatlari uni kosmetik mahsulotlar tarkibiga kiritilishiga sabab bo‘lgan. Na’matak yog‘i teri va soch uchun niqoblar, shampunlar va toniklar tarkibida qo‘llaniladi.Yalpiz ko‘plab sohalarda, jumladan, tibbiyot, kosmetika va oziq-ovqat sanoatida keng qo‘llaniladi. Uning boy kimyoviy tarkibi va foydali xususiyatlari uni qadrlashga sabab bo‘lib, sog‘lom turmush tarziga intiluvchilar orasida mashhurdir.



EFIR MOYLARINING FIZIK XOSSALARI: Efir moylar ko‘pincha rangsiz yoki ba’zan turli rangdagi (yashil, och sariq, to‘q ko‘k, qizil, qo‘ng‘ir) o‘ziga xos hidga va o’tkir mazaga ega uchuvchan tiniq suyuqlikdir. Uning zichligi ko‘pincha suvdan yengil, ba’zan og‘ir bo‘lishi mumkin. Juda yengil efir moyining zichligi 0,8; eng og‘iriniki esa 1,182. **EFIR MOYLARNING KIMYOVIY TARKIBI:** Efir moylari organik moddalar aralashmasidan iborat bo‘lib, tarkibiga barcha to‘yingan va to‘yinmagan birikmalar, alifatik, siklik hamda aromatik uglevodorodlar, terpenlar, spirtlar, yog’ kislotalar, fenollar, murakkab efirlar, aldegidlar, ketonlar, laktonlar va tarkibida azot hamda oltingugurt bo‘lgan boshqa organik moddalar kiradi. atirguldan olinadigan efir moyi tarkibidagi geraniol spirtining formulasi quyidagicha: $\text{CH}_3 - \text{C} = \text{CH} - \text{CH}_2 - \text{CH}_2 - \text{C} = \text{CH} - \text{CH}_2\text{OH} \text{ II } \text{CH}_3 \text{CH}_3$



Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xolmatov.H.X Farmakagnoziya-2007c(darslik)
2. Po'latova.T Farmakagnoziya amaliyoti 2002,
3. Xolmatov.H.X Farmakagnoziya 2 lot 2007,
4. Muraviyeva.D.A Farmakagnoziya 1991.
5. Комилов Х.М. Фармакогнозия фани бўйича маъruzalар матни. – Т

